FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 372.4:37.091.3

Shomuratova Sarvinoz,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

O‘QISH SAVODXONLIGINING PISA VA PIRLS DASTURLARIDAGI TALQINLARI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qish savodxonligining nazariy-metodologik asoslari hamda uning PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlaridagi mazmuniy talqinlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. O‘qish savodxonligini shakllantirishda dekodlash va tilni tushunish komponentlarining o‘zaro aloqasi, vaziyat modelining shakllanishi, o‘quvchi–matn–topshiriq omillarining ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. PISA dasturida o‘qish savodxonligining real hayotiy vaziyatlarda axborotni izlash, tushunish, baholash va mulohaza yuritish bilan bog‘liq jihatlari, shuningdek, ssenariyga asoslangan baholash mexanizmlari tahlil etilgan. PIRLS dasturida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashga xizmat qiluvchi to‘rtta kognitiv jarayon va ikkita o‘qish maqsadi ko‘rib chiqilgan. Har ikki dastur yondashuvlari qiyoslanib, ularning ta’lim jarayonida topshiriqlarni loyihalash, o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va baholash metodikasini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, PISA, PIRLS, matnni tushunish, kognitiv jarayonlar, vaziyat modeli, dekodlash, ssenariyga asoslangan baholash, o‘quvchi–matn–topshiriq munosabati, tanqidiy fikrlash.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В ПРОГРАММАХ PISA И PIRLS И ЕЁ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ теоретико-методологических основ читательской грамотности и её интерпретации в международных программах оценки PISA и PIRLS. На основе научных источников раскрываются взаимосвязь декодирования и языкового понимания, формирование ситуационной модели текста, а также роль факторов «читатель–текст–задание» в процессе чтения. Рассматриваются особенности подхода PISA к оценке способности учащихся находить, понимать, оценивать информацию и размышлять над ней в контексте реальных жизненных ситуаций, а также механизмы оценивания, основанные на сценариях. Анализируется подход PIRLS, предусматривающий оценку четырёх когнитивных процессов понимания текста и двух основных целей чтения. На основе сопоставления данных программ обосновывается их методологическое значение для разработки учебных заданий, развития навыков работы с текстом и совершенствования системы оценивания в образовательном процессе.

Ключевые слова: читательская грамотность, PISA, PIRLS, понимание текста, когнитивные процессы, ситуационная модель, декодирование, сценарное оценивание, читатель–текст–задание, критическое мышление.

INTERPRETATIONS OF READING LITERACY IN THE PISA AND PIRLS FRAMEWORKS AND ITS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Abstract. This article presents a comparative analysis of the theoretical and methodological foundations of reading literacy and its interpretation within the international PISA and PIRLS assessment frameworks. Drawing on relevant scholarly sources, it examines the relationship between decoding and language comprehension, the construction

of a situation model, and the role of reader–text–task factors in the reading process. Particular attention is paid to the PISA approach to assessing students' ability to locate, understand and evaluate information, as well as reflect on it in real-life contexts, including scenario-based assessment. The article also explores the PIRLS framework, focusing on its two main purposes of reading and four cognitive comprehension processes. By comparing the two assessment frameworks, the study identifies their methodological significance for designing learning tasks, developing students' text-processing skills and improving assessment practices in education.

Keywords: reading literacy, PISA, PIRLS, reading comprehension, cognitive processes, situation model, decoding, scenario-based assessment, reader–text–task interaction, critical thinking.

KIRISH

O‘qish inson faoliyatining murakkab kognitiv jarayonlaridan biri bo‘lib, u tabiiy ravishda shakllanadigan qobiliyat emas, balki maxsus o‘rgatish va muntazam mashq qilish orqali rivojlanadigan ko‘nikmalar majmuasidir. Inson miyasi o‘qish faoliyatiga biologik jihatdan tayyor holda tug‘ilmaydi, shu sababli yozma belgilarni tanish, ularni tovushlar bilan bog‘lash, so‘z ma’nolarini anglash va matn mazmunini yaxlit idrok etish muayyan ta’limiy faoliyatni talab qiladi [1; 2]. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish savodxonligi nafaqat ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish, balki ta’lim tizimining umumiy sifati, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qish savodxonligi matnni shunchaki o‘qish yoki undagi ma’lumotlarni eslab qolish bilan chegaralanmaydi. U o‘qilgan axborotni tushunish, undan maqsadli foydalanish, turli manbalardagi ma’lumotlarni taqqoslash, ularning ishonchliligini baholash hamda mustaqil xulosa chiqarishni qamrab oladi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA xalqaro baholash dasturida o‘qish savodxonligi shaxsning o‘z maqsadlariga erishishi, bilim va salohiyatini rivojlantirishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, baholash, ular haqida mulohaza yuritish va ularga faol munosabat bildirish qobiliyati sifatida izohlanadi [3].

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham ushbu masala alohida ahamiyatga ega. PISA 2022 natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston o‘quvchilari o‘qish savodxonligi bo‘yicha 336 ball to‘plagan bo‘lib, OECD mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichi 476 ballni tashkil etgan [4]. Bu natijalar o‘quvchilarda matnni tushunish, axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘qilgan ma’lumotlardan amaliy vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. OECD ma’lumotlarida ham o‘qish savodxonligi natijalarining pasayish tendensiyasi qayd etilgan bo‘lib, bu muammoning xalqaro miqyosda dolzarbligini tasdiqlaydi [5].

O‘qish savodxonligini samarali rivojlantirish uchun, avvalo, uning nazariy asoslarini anglash, xalqaro baholash dasturlarida qanday mazmun va mezonlar asosida talqin etilishini aniqlash muhimdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi PIRLS hamda 15 yoshli o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholovchi PISA

dasturlarining yondashuvlarini o‘zaro qiyoslash o‘qish kompetensiyasining rivojlanish bosqichlarini tushunishga yordam beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘qish savodxonligining nazariy-metodologik asoslarini ilmiy manbalar asosida yoritish, PISA va PIRLS dasturlarida uning talqin qilinish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda olingan xulosalarning ta’lim amaliyotidagi metodologik ahamiyatini asoslashdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘qish savodxonligining nazariy asoslarini o‘rganishda psixolingvistika, kognitiv psixologiya va ta’lim metodikasi sohalaridagi ilmiy qarashlar muhim o‘rin tutadi. O‘zbek olimlaridan I. Azimova o‘qib tushunishni grafemalarni tanish, so‘zlarni o‘qish, ularning lug‘aviy va kontekstual ma’nosini anglash, sintaktik tuzilmani tahlil qilish hamda matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlashni qamrab oluvchi psixolingvistik jarayon sifatida izohlaydi [6]. Sh. Abdiraimov esa o‘qib tushunishni perseptiv faoliyatning tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, uni grafik tasvirni tanishdan boshlab matnni boshqa matnlar bilan qiyoslash va baholashgacha bo‘lgan olti bosqichda tavsiflaydi [7]. Ushbu yondashuvlar o‘qib tushunishning oddiy idrok etishdan murakkab tahliliy va baholash faoliyatigacha rivojlanishini ko‘rsatadi.

O‘qish jarayonini tushuntiruvchi muhim nazariyalardan biri Gough va Tunmer tomonidan ishlab chiqilgan oddiy o‘qish modelidir. Mazkur modelga ko‘ra, o‘qish qobiliyati so‘zlarni dekodlash va tilni tushunish komponentlarining o‘zaro ko‘paytmasi sifatida qaraladi. Agar ushbu komponentlardan biri yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, umumiy o‘qish qobiliyati ham cheklanadi [8]. Scarborough ushbu qarashlarni kengaytirib, o‘qish ko‘nikmalarini so‘zlarni tanish va tilni tushunish bilan bog‘liq ikki asosiy guruhga ajratadi. Birinchi guruh dekodlash va so‘zlarni avtomatik tanishni, ikkinchi guruh esa lug‘at boyligi, mavjud bilimlar, til tuzilmalari, verbal mantiq va matn mazmunini anglashni o‘z ichiga oladi [9]. Mazkur nazariyalar o‘qish savodxonligini rivojlantirishda texnik o‘qish ko‘nikmalari bilan mazmuniy tushunish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslaydi.

Kintsch tomonidan ishlab chiqilgan vaziyat modeli nazariyasi matnni tushunish jarayoniga yanada kengroq yondashadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchi matnni tushunish davomida undagi alohida jumlalar ma’nosini anglash bilan cheklanmaydi, balki matnda tasvirlangan voqea, hodisa va munosabatlarni yaxlit aqliy tasvirga birlashtiradi [10]. Bunda matnda bevosita ifodalangan axborot o‘quvchining avvalgi bilimlari, tajribasi va xulosalari bilan uyg‘unlashadi. Natijada matnning umumiy mazmunini aks ettiruvchi vaziyat modeli shakllanadi.

C. Snow o‘qib tushunishni o‘quvchi, matn va o‘qish faoliyati amalga oshiriladigan vaziyatning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida izohlaydi [11]. Ushbu yondashuv o‘quvchining bilim darajasi, motivatsiyasi va individual xususiyatlari, matnning mazmuni va murakkabligi, shuningdek, topshiriqning maqsadi va talablari o‘qish natijasiga birgalikda ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari ham aynan shu nazariy qarashlarga tayangan holda o‘qish savodxonligini turli yosh davrlarida baholashga yo‘naltirilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA 2018 Assessment and Analytical Framework hujjatida o‘qish savodxonligi matnlarni tushunish, axborotni izlash, baholash va turli manbalardagi ma’lumotlarni birlashtirish jarayonlari orqali tavsiflanadi [3]. PIRLS 2021 Assessment Frameworks hujjatida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi ikki asosiy maqsad va to‘rtta kognitiv tushunish jarayoni asosida baholanadi [13].

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar o‘qish savodxonligini ko‘p tarkibli va bosqichma-bosqich rivojlanuvchi kompetensiya sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi. Biroq mazkur nazariy qarashlarning PISA va PIRLS dasturlarida qanday baholash mezonlariga aylantirilgani, ularning o‘xshash va farqli jihatlari hamda ta’lim amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini yaxlit qiyosiy tahlil qilish zarurati mavjud.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini o‘qish savodxonligini psixolingvistik, kognitiv va pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganuvchi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Maqolada o‘qish savodxonligining mohiyatini ochib berish maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va ilmiy manbalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

Dastlab o‘qish jarayonining psixologik va kognitiv mexanizmlari oddiy o‘qish modeli, vaziyat modeli hamda o‘quvchi–matn–topshiriq munosabati asosida tahlil qilindi. Keyingi bosqichda PISA 2018 va PIRLS 2021 baholash doiralari o‘rganilib, ularda o‘qish savodxonligining maqsadi, matn turlari, tushunish jarayonlari, topshiriqlar tuzilishi va baholash mezonlari qiyoslandi.

Tadqiqotda PISA dasturining 15 yoshli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan funksional o‘qish savodxonligi yondashuvi hamda PIRLS dasturining 4-sinf o‘quvchilarida shakllangan boshlang‘ich o‘qib tushunish kompetensiyalarini baholashga yo‘naltirilgan metodikasi asosiy tahlil obyekti sifatida belgilandi. Qiyosiy tahlilda har ikki dasturdagi kognitiv jarayonlarning mazmuniy muvofiqligi va yosh xususiyatlariga ko‘ra farqlanishi e’tiborga olindi.

Shuningdek, nazariy xulosalarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish maqsadida 4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan uch oylik pedagogik tajribaning dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tajriba natijalari tavsifiy-statistik yondashuv asosida umumlashtirildi. Tajriba tanlanmasining kichikligi va nazorat guruhining mavjud emasligi sababli natijalar sabab-oqibat munosabatini to‘liq isbotlovchi dalil sifatida emas, balki dastlabki kuzatuv natijasi sifatida talqin qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘qish savodxonligining nazariy asoslari hamda PISA va PIRLS dasturlarida qo‘llaniladigan baholash yondashuvlari o‘rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlandi. Tahlil natijalari o‘qish savodxonligi bir-biri bilan uzviy

bog‘liq bo‘lgan quyi va yuqori darajadagi kognitiv jarayonlar majmuasidan tashkil topishini ko‘rsatdi.

O‘qish savodxonligining nazariy-metodologik asoslari. Oddiy o‘qish modeliga muvofiq, dekodlash va tilni tushunish o‘qish savodxonligining o‘zaro bog‘liq ikki muhim komponentidir. Dekodlash yozma belgilarni tanish va so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish imkonini bersa, tilni tushunish so‘zlar, gaplar va matnning mazmunini anglashga xizmat qiladi. Ushbu ikki komponentdan birining yetarli rivojlanmaganligi matnni to‘liq tushunishga to‘sqinlik qiladi.

Vaziyat modeli nazariyasi esa matnni chuqur anglash uchun alohida jumlalar mazmunini bilishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. O‘quvchi matndagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, yashirin mazmunni anglab yetishi va mavjud bilimlari bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Masalan, «So‘nggi yillarda shaharda daraxtlar soni kamaydi. Yoz oylarida havo harorati esa ko‘tarildi» jumlalarini o‘qigan o‘quvchi har ikkala fikrning alohida mazmunini tushunishi mumkin. Biroq chuqur anglash ushbu hodisalar o‘rtasidagi ehtimoliy bog‘liqlikni aniqlashni ham talab etadi.

O‘qib tushunish samaradorligi o‘quvchi, matn va topshiriq omillarining o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. O‘quvchi omiliga uning motivatsiyasi, qiziqishi, avvalgi bilimlari va kognitiv imkoniyatlari kiradi. Matn omili matnning formati, hajmi, til murakkabligi va mazmuniy tuzilishini qamrab oladi. Topshiriq omili esa o‘qish maqsadi, ajratilgan vaqt, savollar soni va ularning murakkabligi bilan belgilanadi. Demak, o‘qish natijasini baholashda faqat o‘quvchining javoblariga emas, balki matn va topshiriq xususiyatlariga ham e’tibor qaratish lozim.

PISA dasturida o‘qish savodxonligini baholash. PISA yondashuvida o‘qish savodxonligi o‘quvchining matnni tushunishi bilan birga, undan kundalik hayotda maqsadli foydalanish qobiliyatini ham qamrab oladi. Baholash jarayonida kognitiv testlar va so‘rovnomalardan foydalaniladi. Kognitiv testlar matn bilan ishlash ko‘nikmalarini aniqlasa, so‘rovnomalar o‘quvchilarning o‘qishga munosabati, qiziqishi, motivatsiyasi va kitobxonlik tajribasi haqida ma’lumot beradi [3].

PISA dasturida matn, ssenariy va topshiriq hamda matn bilan ishlash jarayoni baholashning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Matnlar maqola, hikoya, e’lon, jadval, elektron xat va boshqa axborot shakllarida taqdim etilishi mumkin. Taqdim etilishiga ko‘ra, ular statik va dinamik matnlarga ajratiladi. Statik matnlarda axborot odatdagi ketma-ketlikda o‘qilsa, dinamik matnlarda o‘quvchi giperhavolalar, qidiruv natijalari va boshqa elektron vositalar orqali o‘qish yo‘nalishini mustaqil belgilaydi.

PISA 2018 doirasida matn bilan ishlashning asosiy jarayonlari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Axborotni izlash va topish. Bunda o‘quvchi bitta matndan kerakli ma’lumotni ajratib olishi yoki bir nechta manba orasidan maqsadga muvofiq axborotni tanlashi talab etiladi. Elektron muhitda bu jarayon manbaning dolzarbligi va ishonchliligini aniqlash bilan ham bog‘liq.

Matnni tushunish. O‘quvchi matnda bevosita ifodalangan ma’noni anglash, alohida ma’lumotlarni bog‘lash, umumiy mazmunni aniqlash va bir nechta matndagi axborotni yaxlit tasavvurga birlashtirish ko‘nikmalarini namoyon etadi.

Baholash va mulohaza yuritish. Bu jarayonda matnning mazmuni, shakli, muallifning maqsadi va nuqtayi nazari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborotning aniqligi, dolzarbligi, ishonchliligi va xolisligi baholanadi.

PISA yondashuvida ravon o‘qish ham muhim ahamiyatga ega. Ravonlik so‘z va gaplarni aniq, tez va avtomatik qayta ishlash, mazmuniy birliklarni to‘g‘ri ajratish qobiliyatidir [12]. Ravon o‘qish jarayonida dekodlashga sarflanadigan kognitiv resurslar kamayadi va diqqatni matn mazmunini chuqurroq anglashga yo‘naltirish imkoniyati oshadi.

Ssenariyga asoslangan baholash. PISA dasturining muhim metodologik xususiyatlaridan biri o‘quvchilarga o‘zaro mazmunan bog‘liq matnlar asosida umumiy maqsadga yo‘naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishidir. An’anaviy baholashda matnlar va savollar ko‘pincha bir-biridan mustaqil holda beriladi. Ssenariyga asoslangan baholashda esa o‘quvchi bir nechta manbadan foydalanib, muayyan muammoni hal qilishi yoki asoslangan xulosa tayyorlashi kerak bo‘ladi.

1-jadval. Ssenariyga asoslangan topshiriq namunasi

Element	Mazmuni
Mavzu	Maktabda sog‘lom ovqatlanish
Umumiy ssenariy	Maktab oshxonasida sog‘lom ovqatlanishni yaxshilash
1-manba	Darslikdan sog‘lom ovqatlanish tamoyillari haqidagi parcha
2-manba	Maktab oshxonasining haftalik menyusi va taomlar tarkibi
3-manba	Bolalar ovqatlanishi bo‘yicha internet maqolasi
Yakuniy vazifa	Uchta manbadan foydalanib, maktab oshxonasi menyusini takomillashtirish bo‘yicha asoslangan tavsiya tayyorlash

Mazkur topshiriqni bajarish davomida o‘quvchi ma’lumotni izlash, manbalarni solishtirish, axborotning ishonchliligini baholash, umumlashtirish va amaliy tavsiya ishlab chiqish kabi bir nechta ko‘nikmalarni namoyon etadi.

Ssenariy doirasidagi topshiriqlar murakkabligi va mazmuniga ko‘ra farqlanadi. Ayrim vazifalarda o‘quvchidan aniq ma’lumotni topish talab qilinsa, boshqalarida bir nechta matnni integratsiyalash, internet qidiruv natijalarini baholash yoki turli manbalardagi qarama-qarshi ma’lumotlarni tahlil qilish talab etiladi.

PISA topshiriqlarida bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash mexanizmidan ham foydalaniladi. Masalan, o‘quvchi dastlabki topshiriqda kerakli hujjatni topa ol-

masa, keyingi topshiriqni bajarishi uchun unga tegishli hujjat taqdim etilishi mumkin. Bunday yondashuv dastlabki xato sababli o‘quvchining boshqa ko‘nikmalarini namoyon qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lishining oldini oladi [3].

PIRLS dasturida o‘qish savodxonligini baholash. PIRLS xalqaro tadqiqoti 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish darajasini baholashga qaratilgan. Mazkur bosqich o‘quvchilarning «o‘qishni o‘rganish» davridan «o‘rganish uchun o‘qish» davriga o‘tishi bilan tavsiflanadi [13]. PIRLS o‘qish savodxonligini matnni tushunish, undan foydalanish va o‘qilgan axborotni shaxsiy hamda ijtimoiy hayot bilan bog‘lash qobiliyati sifatida talqin qiladi.

PIRLS dasturida o‘qishning ikkita asosiy maqsadi belgilangan: badiiy tajriba orttirish hamda ma’lumotni qabul qilish va undan foydalanish. Har ikkala maqsad baholashda teng ulushga ega bo‘lib, 50 foizdan tashkil topadi.

O‘quvchilarning matnni tushunish darajasi to‘rtta kognitiv jarayon asosida baholanadi:

Diqqatni jamlash va aniq bayon etilgan ma’lumotni topish (20%). Matnda bevosita berilgan axborot, so‘z va iboralarning ma’nosi, voqea joyi, vaqti yoki asosiy g‘oyasini aniqlashni nazarda tutadi.

Bevosita xulosa chiqarish (30%). Matnda ochiq ifodalanmagan, biroq o‘zaro bog‘liq ma’lumotlarni birlashtirish orqali aniqlanishi mumkin bo‘lgan mazmunni anglashni talab qiladi.

G‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish va birlashtirish (30%). Matnning umumiy mazmunini tushunish, alohida detallarni asosiy g‘oya bilan bog‘lash, qahramonlar harakatini izohlash va axborotni hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashtirishni qamrab oladi.

Mazmun va matn elementlariga tanqidiy yondashish va baholash (20%). Matndagi axborotning aniqligi, to‘liqligi, ishonarliligi, sarlavhaning mosligi, muallif nuqtayi nazari va til vositalarining ta’sirini baholashga yo‘naltiriladi.

PIRLS topshiriqlarini shakllantirishda matnning uzunligi, sintaktik murakkabligi, mavhum g‘oyalarning mavjudligi va mazmuniy tuzilishi hisobga olinadi. Matnda bevosita berilgan ma’lumotni topish, odatda, butun matnni talqin qilish, turli fikrlarni birlashtirish va shaxsiy bilimlar bilan uyg‘unlashtirishga qaraganda soddaroq kognitiv faoliyat hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchining shaxsiy fikri baholanishida uning matnga asoslangan dalillar bilan izohlanishi muhimdir.

PISA va PIRLS dasturlarining qiyosiy natijalari. Ikki xalqaro dastur o‘qish savodxonligining rivojlanishini turli yosh bosqichlarida baholasa-da, ularning nazariy asoslarida umumiylik mavjud. Har ikkala dastur matnni tushunish, ma’lumotni izlash, xulosa chiqarish va baholash jarayonlariga alohida e’tibor qaratadi.

2-jadval. PISA va PIRLS dasturlarida o‘qish savodxonligi talqinining qiyosiy tavsifi

Ko‘rsatkich	PISA 2018	PIRLS 2021

Yosh va sinf	15 yoshli o‘quvchilar	4-sinf o‘quvchilari
Asosiy maqsad	O‘qilgan axborotdan real hayotda foydalanish	Matnni tushunish va undan shaxsiy hamda ijtimoiy hayotda foydalanish
Matnlar	Turli formatdagi bitta va bir nechta statik hamda dinamik matnlar	Badiiy va axborot matnlari
O‘qish maqsadi	Turli hayotiy vaziyatlarda axborot bilan ishlash	Badiiy tajriba orttirish va ma’lumot olish
Kognitiv ja-rayonlar	Axborotni izlash, tushunish, baholash va mulohaza yuritish	Aniq ma’lumotni topish, xulosa chiqarish, talqin va integratsiya, tanqidiy baholash
Qo‘shimcha ma’lumot	O‘qishga qiziqish, motivatsiya va kitobxonlik tajribasi	O‘qish odatlari, munosabat, uy va maktab muhiti
Topshiriq tuzish	Ssenariy, matn va kognitiv jarayon-lar asosida	Matn xususiyatlari va tushunish jarayonlari asosida

Qiyosiy tahlil natijasida PIRLS dasturidagi to‘rtta kognitiv jarayonni PISA dasturidagi uchta asosiy jarayon guruhi bilan mazmunan bog‘lash mumkinligi aniqlandi. PIRLSdagi aniq ma’lumotni topish PISAning axborotni izlash jarayoniga mos keladi. Bevosita xulosa chiqarish hamda g‘oya va ma’lumotlarni talqin qilish PISAning matnni tushunish jarayoni bilan bog‘liq. Mazmun va matn elementlarini tanqidiy baholash esa PISAning baholash va mulohaza yuritish jarayonlariga mos keladi.

Mazkur taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tushunishning asosiy komponentlari shakllanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, PISA ushbu ko‘nikmalarning murakkab axborot muhitida va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilishini baholaydi.

Pedagogik tajriba natijalari. Nazariy xulosalarning amaliy ahamiyatini aniqlash maqsadida 4-sinf o‘quvchilari bilan uch oy davomida o‘qib tushunish jarayonlariga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Dastlabki nazorat natijalarida o‘quvchilarning aniq berilgan ma’lumotni topish savollariga to‘g‘ri javob berish ko‘rsatkichi 86 foizni tashkil etgan. Bevosita xulosa chiqarish savollarida ushbu ko‘rsatkich 65 foiz, talqin va integratsiya savollarida esa 50 foiz bo‘lgan.

Mashg‘ulotlardan so‘ng to‘g‘ri javoblar ulushi dastlabki 54,4 foizdan 77,2 foizga ko‘tarilgan. Bu natija o‘qib tushunishning turli kognitiv jarayonlariga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari o‘qish savodxonligini shakllantirishda nazariy bilimlar va xalqaro baholash dasturlarining metodologik yondashuvlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Oddiy o‘qish modeli o‘qishning boshlang‘ich mexanizmlarini, vaziyat modeli esa matn mazmunini chuqur anglash jarayonini tushuntiradi. PISA va PIRLS dasturlaridagi baholash mezonlari ushbu nazariy qarashlarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

PIRLS dasturida o‘quvchilarning aniq ma’lumotni topish va bevosita xulosa chiqarish ko‘nikmalari bilan bir qatorda, ma’lumotlarni talqin qilish, birlashtirish va tanqidiy baholash qobiliyatlari ham baholanadi. Bu esa boshlang‘ich ta’limdayoq yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini shakllantirish zarurligini anglatadi. O‘quvchilar matndan tayyor javobni topish bilan cheklanmay, o‘z fikrlarini matndagi dalillar asosida izohlashga ham o‘rgatilishi kerak.

PISA dasturining ssenariyga asoslangan baholash yondashuvi o‘qish faoliyatini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi. Bunday topshiriqlarda o‘quvchi bir nechta matn va manbalar bilan ishlaydi, ularni taqqoslaydi, ishonchliligini baholaydi va zarur axborotni tanlaydi. Natijada o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi bilan birga tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

PISA va PIRLS dasturlarining umumiy jihati o‘qish savodxonligini faqat texnik o‘qish tezligi yoki matnni qayta hikoya qilish bilan cheklamasligidir. Har ikkala dastur o‘quvchining matnni anglash va undan maqsadli foydalanish qobiliyatini baholaydi. Ularning farqi esa o‘quvchilarning yoshi, ta’lim bosqichi va topshiriqlar murakkabligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o‘qish savodxonligini rivojlantirishda uchta metodologik yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Birinchisi, o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, topshiriqlarni o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi va motivatsiyasiga moslashtirishni nazarda tutadi. Ikkinchisi, matnga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, turli janr, format va murakkablikdagi matnlardan foydalanishni talab etadi. Uchinchisi, topshiriqqa yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, kundalik hayot bilan bog‘liq, turli maqsadlarda o‘qishni talab qiladigan vazifalarni bajarishga asoslanadi.

Shuningdek, topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab tashkil etish, bir nechta manbani solishtirish, muallif pozitsiyasini aniqlash va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni ko‘paytirish zarur. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda matnni anglash bilan bir qatorda, yuqori darajadagi tahliliy va baholash ko‘nikmalarini ham rivojlantirish muhimdir.

O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari ham ushbu fikrlarni qo‘llab-quvvatlovchi dastlabki kuzatuv sifatida ahamiyatlidir. Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlarda tanlanma hajmini kengaytirish, nazorat guruhini shakllantirish va natijalarni statistik jihatdan chuqurroq tahlil qilish xulosalarning ishonchliligini oshiradi.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy va qiyosiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, o‘qish savodxonligi dekodlash va tilni tushunish komponentlarining o‘zaro ta’siri, matn mazmunini yaxlit anglash hamda o‘quvchi–matn–topshiriq munosabatlari asosida shakllanadigan murakkab kognitiv kompetensiyadir. Uni rivojlantirishda texnik o‘qish bilan bir qatorda mazmunni anglash, xulosa chiqarish va tanqidiy fikrlashga ham e’tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, PISA va PIRLS dasturlari o‘qish savodxonligini umumiy nazariy asoslarda talqin qilsa-da, baholash maqsadlari va metodik yondashuvlari bilan farqlanadi. PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish bilan bog‘liq to‘rtta kognitiv jarayonini baholasa, PISA ushbu ko‘nikmalarni murakkab axborot muhiti va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlaydi.

Uchinchidan, PISA dasturidagi ssenariyga asoslangan baholash o‘quvchilarning bir nechta manba bilan ishlash, ma’lumotlarni integratsiyalash, axborot ishonchliligini aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuvni maktab mashg‘ulotlariga moslashtirish topshiriqlarning hayotiyligini oshiradi.

To‘rtinchidan, PIRLS dasturida belgilangan to‘rtta tushunish jarayonini izchil rivojlantirish o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini takomillashtiradi. Aniq ma’lumotni topishdan xulosa chiqarish, talqin qilish, ma’lumotlarni birlashtirish va tanqidiy baholashga o‘tish o‘qish savodxonligini rivojlantirishning muhim shartidir.

Beshinchidan, 4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan uch oylik pedagogik tajribada to‘g‘ri javoblar ulushining 54,4 foizdan 77,2 foizga oshgani tushunish jarayonlariga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning istiqbolli ekanini ko‘rsatuvchi dastlabki dalil hisoblanadi. Biroq nazorat guruhining mavjud emasligi va tanlanmaning kichikligi natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Umuman olganda, o‘qish savodxonligini rivojlantirishda PISA va PIRLS dasturlarining metodologik yondashuvlarini uyg‘unlashtirish, o‘quvchi–matn–topshiriq munosabatlarini hisobga olish va yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Perfetti C., Stafura J. Word knowledge in a theory of reading comprehension // Scientific Studies of Reading. – 2014. – Vol. 18, No. 1. – P. 22–37.

2. Seidenberg M. Language at the Speed of Sight: How We Read, Why So Many Can’t, and What Can Be Done About It. – New York: Basic Books, 2017.

3. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019. – DOI: 10.1787/b25efab8-en.

4. Djalilov K. PISA-2022 Results: Implications for Language and Literature Education in Uzbekistan // International Scientific Journal (Scientists.uz). – 2024. – Vol. 3, No. 9. – DOI: 10.5281/ZENODO.13834636.

5. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Future-Ready Students. – Paris: OECD Publishing, 2026. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2025-results-volume-i_73451bc5-en.html

6. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti: III an’anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019.

7. Abdiraimov Sh. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. – Dissertatsiya va avtoreferat, 2022.

8. Gough P.B., Tunmer W.E. Decoding, reading, and reading disability // Remedial and Special Education. – 1986. – Vol. 7, No. 1. – P. 6–10.

9. Scarborough H.S. Connecting early language and literacy to later reading (dis)abilities: Evidence, theory, and practice // Neuman S.B., Dickinson D.K. (eds.). Handbook of Early Literacy Research. – New York: Guilford Press, 2001. – P. 97–110.

10. Kintsch W. Comprehension: A Paradigm for Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

11. Snow C.E. Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. – Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2002.

12. Kuhn M.R., Stahl S.A. Fluency: A review of developmental and remedial practices // Journal of Educational Psychology. – 2003. – Vol. 95, No. 1. – P. 3–21.

13. Mullis I.V.S., Martin M.O. (eds.). PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2019. – URL: https://pirls2021.org/frameworks/